

O'ZBEKISTONDA MUSIQA TURIZMI, UNING RIVOJLANISHI VA
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.

G'oziyeva Farangiz Umidjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Xalqaro turizm fakulteti magistranti

ferkinova049@gmail.com

Annotatsiya: *Ko'pgina sayohatchilar noyob turizm sohaslariga qiziqadilar va musiqa turizmi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Musiqa turizmi hozirgi kunda eng ko'p daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib, ko'plab mintaqalar musiqa turizmi orqali daromadga ega bo'lishmoqda. Bu turizm insonlarning musiqiy shou, konsert, yarmarkalar, musiqa spektaklari va hattoki kattaroq festivallarda ham qatnashish imkonini beradi. Festivallarda qo'llaniladigan aloqa vositalari ommaviylikka erishish uchun samaralidir. Kommunikatsiya kattaroq auditoriyani qamrab olishga yordam beradi. Sifatli reklama va PR musiqa turizmining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *turizm, festival, shou-konsert, gastronomik turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, kommunikatsiya.*

Musiqa turizmida sayohatchilar sevimli musiqachilarini jonli sahnalarda ko'rish orqali zavqlanadilar. Shuningdek, musiqiy tamosha olib boriladigan joylarni ko'rib keladilar. Ular konsert va musiqiy shoularga chipta sotib olishganlarida tabiiyki albatta o'sha joyda biror muddat qolishlariga to'g'ri keladi. Va mahalliy iqtisodiyotga ham bu soha foyda keltiradi. Masalan; mehmonxonalarni bron qilish, restoran, kafelarda ovqatlanish, ichimliklardan olinadigan daromadlar. Shu va boshqa ko'plab sabablar bilan ko'plab hududlar musiqa turizmini qadr-qimmatini tan olishmoqda. Musiqa turizmining yana bir jihatlaridan biri bu musiqa festivallardir. Musiqa festivallarini tashkil qilinishi biznes egalari uchun ancha yaxshi. Chunki festivallar o'tkazilishi 3-4 kun yoki ishtirok etuvchilar soniga qarab 1 hafta va undan ham ko'roq bo'lishi mumkin. Musiqa festivallarida yakka ijrochilikdan ko'ra ko'proq jamoa ijrochilar, raqs guruhlari qatnashadilar va bu ishtirokchilar hamda turistlarning qiziqish imkoniyatlarini oshiradi. Davlatlarning madaniy jihatdan o'z ma'lum bir musiqa uslublari mavjud va shu uslublari bilan muxlislarni o'zlariga jalb qilishadi. Ommaviy kommunikatsiyaning asosi imkon qadar katta auditoriyani qamrab olishdir. Ommaviy bo'lsa-da televidenie reklamasi kabi aloqa shaxsiylashtirishni deyarli imkonsiz qiladi, u katta auditoriyani tez va arzonga yetkazish

imkoniyatini beradi. Bunday turdagi ko'p ommaviy reklama ma'lumotlarini qayta ishlash tizimi tomonidan e'tiborga olinmaydi. Biroq, odatda, bu ommaviy auditoriyada, har doim ham faol bo'lgan odamlarning qiziqishlarini oshiradi. Bundan tashqari, turizm va mehmondo'stlik sohasidagi xodimlar trening va leksiyalarda muntazam qatnashib borishi kerak. Chunki xodimlarning muloqat qobiliyatlari mijozlar bilan ijobiy munosabat yaratishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu muloqat an'anaviy usullar (uchrashuvlar, konferensiyalar va seminarlar), shuningdek, zamonaviy texnologiyalar (telefon, elektron pochta, internet va ijtimoiy media) orqali amalga oshiriladi. Ushbu muloqot usullari siyosatchilarni, turistik sohada ishlaydiganlarni va sayyohlarni o'qitish uchun juda muhimdir). Texnologik va media nuqtai nazaridan turistik aloqa turli shakllarda, bosma ommaviy axborot vositalari, televideniya, radio, internet va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari va texnologik qurilmalarni o'zgartirish orqali joylar, diqqatga sazovor joylarni turli xil tashrif buyuruvchilar sayyohlarga yetkazish mumkin.

O'zbekistonning musiqa uslublari boshqa mamlakatlarning musiqiy uslublari bilan o'zgarib va o'z muxlislariga ega. Musiqa - mo'jizalar o'lkasi. Unda inson ruhiyati yashiringan bo'lib, ohangi va aks-sadosi ila orom olinadi. Musiqa dunyo madaniyatini bog'lab turuvchi bir ko'prikdir. Shu jumladan, o'zbek musiqasi uning madaniyatini anglash kaliti desak mubolag'a bo'lmaydi. An'anaviy o'zbek musiqasining kelib chiqishi qadimlarga borib taqaladi. Bunga misol: Samarqand va Termizda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida O'zbekistonning milliy cholg'ulari aks ettirilgan freskalar topilgan. An'anaviy musiqiy asarlar, asosan, folklarga yo'naltirilgan. Alisher Navoiy, Jomiy, Muqimiy va ko'plab taniqli, qalami ko'kka yetgan ijodkorlarning she'r, doston va g'azallari baxshilar tomonidan ijro etilgan. O'zbekistonning noyob musiqiy janri "Shashmaqom" esa Yuneskonning insoniyat og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonalari ro'yxatiga kiritilgan. "Shashmaqom" olti maqomdan iborat bo'lib, bular: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq kabilardir. Olti uslubning har biri o'z ritmiga, tartibiga va qiymatiga ega. Bu musiqa uslubini bir guruh qo'shiqchilar, sozandalar an'anaviy dutor, tanbur, doira kabi cholg'u asboblari bilan ijro etib kelishgan. Demak, an'anaviy musiqa asboblarisiz o'zbek musiqa san'atini tasavvur qilish qiyin. Ularning ovozini yuzlab metr balandlikdan ham tinglash mumkin va bu jarayon har kimni o'ziga jalb qila oladi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, o'zbek estradasi vujudga keldi, mahalliy janrlar jonlandi. Lekin shunday bo'lsada an'anaviy musiqaga

bo'lgan e'tibor, ham talab pasaygani yo'q. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda musiqa turizmini shakllantirish va rivojlantirish kerak.

O'zbekistonda Musiqa turizmi – bu biron bir davlat o'z sayyohlarining Toshkent shahri yoki viloyatlarimizni ziyorat qilishi yoki tomosha qilishi mobaynida, ularga kreativ ruhdagi musiqa festivallarini uyushtirib berishimizdir. Bu festivallar davomida mehmonlar an'anaviy cholg'ularda ijro etilgan qo'shiqlarni tinglashi va musiqiy cholg'ularni ko'rishi ham mumkin. Bu ularga estetik ruh va madaniy hordiq beradi.

O'tkazilgan tajribalarga ko'ra, xorijiy mehmonlar o'zbek musiqa san'atiga ham qiziqishadi. Musiqa turizmi loyihasi asosida sayyohlarni o'zbek xalq musiqalari, folklor, lapar, shuningdek, "Shashmaqom" va "Lazgi" kabi madaniy merosimizni tinglashga, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi qoshida ochilgan musiqiy cholg'ular muzeyini tomosha qilishga va hatto ularni ijro etib ko'rishga, yetuk ustozlarining ijodlarini tinglashga va ular bilan suhbatlar uyushtirib ko'ngilochar musiqiy kechalarda ishtirok etishga jalb etish mumkin.

Bu turizm biznes egalari uchun ham qo'shimcha daromad olish imkoniyatini beradi. Masalan: restoran, qahvaxonalar yoki barlarda uyishtirilgan musiqa shoularida, ovqatlanish va ichimliklardan olinadigan daromadlar va ochiq havoda uyushtiriladigan musiqiy tadbirlarda yegulik va ichimliklardan olinadigan daromadlar doimiysiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari milliy cholg'u asboblari, milliy kiyimlar, haykaltaroshlik buyumlari yarmarkasini tashkil qilish va yana bir qancha tadbirlarni o'tkazish mumkin. Musiqiy turizmga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o'zida ziyorat turizmi bilan ham (Samarqand, Buxoro, Xiva) kabi tarixiy shaharlarni sayr qilishlari, ekoturizm bilan ham (O'zbekiston flora va faunasini) tomosho qilishlari, gastronomik turizm bilan ham vaqtlarini o'tkazishlari mumkin.

Xulosa:

Musiqa turizmi, eng avvalo, davlat uchun foyda keltiradi. O'zbekistonda ham bu turizm rivojlansa, o'zbek musiqa san'ati dunyoga taniladi Musiqa turizmini O'zbekistonda ham rivojlantirishimiz mamlakat manfaati uchun foydalidir va yana bir turizm yo'nalishida ajoyib yangilikdir.

Kundalik hayotimizda muloqot o'z tajribalarimiz va ehtiyojlarimizni baham ko'rishga imkon berib, munosabatlarni o'rnatishimizga yordam beradi va boshqalar bilan bog'lanishimizga yordam beradi. Bu hayotning mohiyati bo'lib, bizga his-tuyg'ularni ifoda etish, ma'lumot uzatish va fikr almashish imkonini beradi. Biz hammamiz samarali muloqot qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Blacksoulrhythms.com](https://blacksoulrhythms.com)
2. [Diggitemagazine.com](https://diggitemagazine.com)
3. [En.m.wikipedia.org](https://en.m.wikipedia.org)
4. [Researchgate.net](https://www.researchgate.net)
5. [Cipp.org.uk](https://www.cipp.org.uk)